Ona tili

IV qism

2



novda

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Kuranov Saydullo

Ona tili
2-sinf
IV qism

Umumiy va o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

Ta’limni rivojlantirish markazi huzuridagi ilmiy-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan.

novda
edutainment

Toshkent – 2023

TASDIQLANGAN
PLAGIATGA QARSHI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FARG'ONA VILOYATI
RISHTON TUMANI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI BO'LIMI
33-UMUMIY
O'RTA TA'LIM
MAKTABI
№ 12
1 02 2024 y.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO'K: 811.512.133(075.3)
BBK 81.2O'zb-922
K 94

Kuranov S.D.
Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. IV qism. / S.D. Kuranov – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. – 88 b.

Taqrizchilar:

Sh. Y. Muslimova – Toshkent shahar 328-umumiy o'rta ta'lim maktabining oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi;
M. M. Umarova – Toshkent shahar 222-umumiy o'rta ta'lim maktabining birinchi toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

ISBN 978-9943-9712-7-1

© S.D. Kuranov
© "Novda Edutainment", 2023

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Shartli belgilar:



Og‘zaki bajaring



Yodda tuting



O‘ylab ko‘ring



Uyga vazifa



Yozma bajaring



Guruh bo‘lib ishlang



Juft bo‘lib ishlang

MEN VA TEXNOOLAM



Eng yaxshi ixtirolar

Buvi: Ko‘zoynakni ixtiro qilgan odamning otasiga rahmat! Shu narsa bo‘lmasa, men nima qilardim-a?

Temur: Buvijon, sizningcha, dunyodagi eng yaxshi ixtiro qaysi?

Buvi: Odamlarning og‘irini yengil qilgan ixtirolarning hammasi yaxshi. Gazetada o‘qigandim, g‘ildirak ham eng yaxshi ixtirolardan biri ekan.

Temur: G‘ildirak? Axir, u oddiy narsa-ku!

Buvi: Ammo qadimda, hali ko‘p narsa ixtiro qilinmagan vaqtlarda, g‘ildirak oddiy narsa bo‘lmagan. Hozir senga oddiy tuyuladigan telefon, bir vaqtlar biz uchun mo‘jizaga o‘xshar edi.



O‘ylab ko‘ring.

1. Sizningcha, dunyodagi eng yaxshi ixtiro qaysi?
2. Ixtirochi bo‘lsangiz, nima ixtiro qilgan bo‘lardingiz?

“G‘ildirak? Axir, u oddiy narsa-ku!” gapida so‘roq va undov belgilari nega ishlatilganini izohlang.

1-mashq. Rasmlarga qarang.



G‘ildirak



Kompas



Toshbosma



Radio



Elektr toki



Antibiotik



Bug‘ dvigateli



Televizor



Kompyuter



Internet

1. Yana qaysi kasb egalari kompyuterdan foydalanadi?
2. Nima deb o‘ylaysiz, nega odamlar kompyuterdan foydalanadilar?

- G‘ildirak, elektr toki, televizor va internet haqida bittadan gap tuzing.
- Tuzgan gaplaringizdagi Nima? so‘rog‘iga javob bo‘luvchi so‘zlarning tagiga bitta chiziq chizing.

2-mashq. Mos so‘zlarni tanlab, Aqlbekka vagonlarni to‘g‘ri ulashga yordam bering.



1. Gap nimalardan tuziladi?
2. Gap bo‘lishi uchun so‘zlar bir-biriga to‘g‘ri bog‘lanishi kerakmi?
3. Agar vagonlarni *Aqlbek + telefon + uy* shaklida ulasak, gap hosil bo‘ladimi?

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Gap tugallangan fikrni bildiradi.
Gap so‘zlardan tuziladi.
Gapning birinchi so‘zi bosh harf bilan boshlanadi.





3-mashq. Berilgan so‘zlardan mosini tanlab, tugallanmagan gaplarni to‘ldirib yozing.

Foydalanish uchun so‘zlar:

bormang	qiling	qilmang
ovqatlanmang	unutmang	o‘ynang

Kechqurun to‘yib ... .

Tishlaringizni yuvib yotishni ... .

Har kuni ertalab badantarbiya ..... .

Telefon va kompyuterni kamroq ... .

Nonushta qilmasdan maktabga ... .

- Tugallangan gapning tugallanmagan gapdan qanday farqi bor?



O‘zingiz yaxshi ko‘rgan ixtiro haqida 3 ta gap tuzing.

4-mashq. O‘qing.

G‘ildirak tarixdagi eng yaxshi ixtirolardan biridir. Ilgari odamlar og‘ir yukni yelkalarida ko‘tarishga majbur bo‘lganlar. Ammo g‘ildirakli transport – arava odamlarning uzog‘ini yaqin, og‘irini yengil qildi. G‘ildirak ixtiro qilingandan so‘ng qishloq va shaharlar tezroq rivojlandi. Olimlarning taxminicha, g‘ildirak bundan yetti ming yil oldin ixtiro qilingan ekan. Hozirgi Suriya va Ruminiya hududlaridan ilk yog‘och g‘ildiraklarning qoldiqlari topilgan.



1. G‘ildirak ixtiro qilinmaganida, hozir qanday qurilmalar bo‘lmasdi?
2. Matnda nechta gap bor?
3. Qaysi tinish belgisi gapning tugallanganini bildiradi?

5-mashq. Gaplarni ko‘chiring.

Madina maktabga bordi.

Abror qaysi sinfda o‘qiydi?

Oyijon, bugun “5” oldim!

Ikkita so‘z bir-biriga qo‘shilishidan paydo bo‘lgan so‘zlar ishtirokida 5 ta gap tuzing.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Gap xabar mazmunini bildirsa, oxiriga *nuqta* qo‘yiladi.

Gap so‘rash mazmunini bildirsa, oxiriga *so‘roq belgisi* qo‘yiladi.

Gap kuchli his-hayajon bilan aytilsa, oxiriga *undov belgisi* qo‘yiladi.




6-mashq. O‘qing. Matndagi so‘roq gaplarni yozing. Qaysi so‘z so‘roq bildirayotganini ayting va belgilang.

Kompasning vatani qayer? U qachon ixtiro qilingan? Bilasizmi, kompasni bundan o‘n ming yil oldin xitoyliklar ixtiro qilishgan. Uning ko‘rsatkichi doim shimol tarafni ko‘rsatadi. Kompas bilan kimsasiz sahroda ham, cheksiz dengizlarda ham adashib qolmaysiz. Kompas ixtiro qilinganidan so‘ng Yerning hali inson oyog‘i yetmagan hududlari kashf etildi. Savdogarlar, elchi va sayyohlar uzoqdagi davlatlarni yo‘lda adashmay topib boradigan bo‘ldilar.

1. Kompas qayerda ixtiro qilingan?
2. Shimol, janub, sharq va g‘arb degan so‘zlar nimani anglatadi?

7-mashq. O‘qing. Savollarga javob bering.

Qadimda kitob matni faqat qo‘lda yozilgan. Bitta kitobni yozish uchun bir necha oy vaqt ketardi. Shuning uchun kitoblar soni juda kam bo‘lgan. Keyin toshbosma ixtiro qilinadi. Bu qurilma kitobdagi yozuvlarni bir zumda qog‘ozga tushira olardi. Shunday qilib, kitob chiqarish osonlashadi. Oddiy odamlar ham kitob sotib olishi mumkin bo‘ladi.



1. Nega kitob o‘qiymiz?
2. Toshbosma ixtiro qilinmaganida hozir hayotimiz qanday bo‘lar edi?

Ixtirolar mavzusida so‘roq mazmunida kelgan 4 ta gap tuzing.



8-mashq. Gaplarning oxiriga mos tinish belgisini qo‘yib yozing.

Anvarning ola-bula sigiri bolaladi

Nodira qanday kitob o‘qiyapti

Shu yurtda tug‘ilganimdan baxtiyorman



9-mashq. Kim yoki nima haqida aytilganini bildiruvchi so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

- (Kim?) … odamlarni davolaydi.
- (Nima?) … yerni isitadi.
- (Kim?) … bolalarni o‘qitadi.
- (Nima?) … asal yig‘adi.
- (Kim?) … yo‘lovchilarni tashiydi.
- (Kim?) … taom pishiradi.

Foydalanish uchun so‘zlar:

oshpaz | quyosh | shifokor

o‘qituvchi | haydovchi | asalari

Yodda tuting! Qoidani ko‘chirib oling.

Gap kim (kimlar) yoki nima (nimalar) haqida aytiladi va ular haqida fikr bildiradi.

(Kim?) Oshpaz taom (nima qiladi?) pishiradi.

(Nima?) Quyosh yerni (nima qiladi?) isitadi.



10-mashq. Rasmlarga qarab bittadan gap tuzing.



- Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildiruvchi so‘zlarni so‘roq berib aniqlang. Shu so‘zlarning tagiga bitta chiziq chizing.

Namuna: Quruvchi uylar quradi. Kim uylar quradi? Quruvchi.

11-mashq. O‘qing.

Televizor eng yaxshi ixtirolardan biridir. Televizor butun dunyoni ko‘rsatadi. Bu qurilmani bir kishi ixtiro qilmagan. Toshkentlik olimlar Boris Grabovskiy va Ivan Belyanskiy ham televizorning ixtirochilaridan sanaladi. Televizor odamlarga bir joyda turib jahon bo‘ylab sayohat qilish imkoniyatini berdi.



1. Televizorning foydali jihatlarini sanang.
2. Televizorni ko‘p ko‘rish zararmi?

- Ajratib ko‘rsatilgan gapni ko‘chiring. Gapning nima haqida aytilganini bildiruvchi so‘zni so‘roq berib aniqlang. Shu so‘zning tagiga bitta chiziq chizing.

12-mashq. O‘qing.

Internet 1969-yili ixtiro qilingan. Hozirda internet har bir xonadonga kirib bordi. Internet odamlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Bolalar internet yordamida ta’lim oladi. Turli tillarni o‘rganadi. Dunyo haqida qiziq ma’lumotlar bilan tanishadi.

1. Siz ham internetdan foydalanasizmi?
2. Internet orqali yana nimalar qilish mumkin?

- Ajratib ko‘rsatilgan gapni ko‘chiring. Gapning kim yoki nima haqida aytilganini bildiruvchi so‘zni so‘roq berib aniqlang. Shu so‘zning tagiga bitta chiziq chizing.

Televizor va internetning foydali xususiyatlari haqida 2 tadan gap tuzing.

13-mashq. Ikki jamoaga bo‘linib, “Kim topqir” o‘yinini o‘ynaymiz.



Namuna: Uning 4 ta g‘ildiragi bor. 5 ta o‘rindiqli. Har kuni odamlar unda ishga borib keladi. (Avtomobil)

14-mashq. Rasmga qarab kichik hikoya yozing.



Tuzgan hikoyangizdagi gaplarni tahlil qiling. Gap kim yoki nima haqida aytilganini bildiruvchi so‘zlarning tagiga chizing.

His-hayajon bilan aytiladigan 3 ta gap tuzing.

Zamonaviy texnologiyalar

Temur: Dada, bu nima?

Dada: Bu – quyosh batareyasi. Uni tomga o‘rnatamiz.

Temur: Nega?

Dada: Quyosh batareyasi yorug‘lik nuri yordamida elektr toki ishlab chiqaradi. Uyimizdagi chiroqlar, televizor va muzlatkich quyoshdan quvvat oladi.

Temur: Endi Quyoshdan olingan elektr tokini ishlatamizmi?

Dada: Albatta! Bu – arzon va tabiatga zarar keltirmaydigan energiya.



O‘ylab ko‘ring.

1. Siz ham uy tomida quyosh batareyalarini ko‘rganmisiz?
2. Bunday panellar hamma joyga o‘rnatilsa, nima o‘zgaradi?

Suhbatda nechta so‘roq mazmunidagi gapni o‘qidingiz?



FARG'ONA VILOYATI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI BO'LIMI
33-UMUMIY
O'RTA TA'LIM
MAKTABI
№ 12
1. 02

1-mashq. Gapning qurilishini o‘rganing.



Savol: Gap kim haqida?
Javob: Gap Salima haqida.
Savol: Salimaning nima qilganini qaysi so‘z bildiradi?
Javob: “Tepdi” so‘zi Salima nima qilganini bildiradi.
Demak, asosiy so‘zlar: Salima, tepdi.



Savol: Gap nima haqida?
Javob: ... .
Savol: Muzning nima bo‘lishini qaysi so‘z bildiradi?
Javob: ... .
Demak, asosiy so‘zlar: ... .

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Gapning kim yoki nima haqida aytilganini va ular haqida nima deyilganini bildiruvchi so‘zlar shu gapning asosi hisoblanadi.



(Kim?) Salim koptokni (nima qildi?) tepdi.

(Nima?) Muz issiqda (nima qiladi?) eriydi.

2-mashq. O‘qing. Gaplarning asosi bo‘lgan so‘zlarni belgilang.

Bahorda o‘simliklar uyg‘onadi. Qushlar uchib keladi. Ariqlar to‘lib oqadi. Bolalar varrak uchiradi. Onalar ko‘k somsa pishiradi. Dehqonlar dalada ishlaydi.

- Gapning kim? (kimlar?) yoki nima? (nimalar?) haqida aytilganini bildiruvchi so‘zlar tagiga bitta chiziq va ular haqida nima deyilganini bildiruvchi so‘zlar tagiga ikkita chiziq chizing.

Namuna: *Bahorda <u>o‘simliklar</u> <u>uyg‘onadi.</u>*

3-mashq. O‘qing.

Quyosh batareyasini doskaga o‘xshatish mumkin. Faqat bu doskaning sirti kremniy degan modda bilan qoplangan. Kremniy quyosh nurini juda yoqtiradi. U yorug‘likni o‘ziga tortadi. Ana shunday vaqtda kremniyning ichidagi mayda zarralar qimirlay boshlaydi. Buning oqibatida elektr toki hosil bo‘ladi.



- Ajratib ko‘rsatilgan gaplarni yozing. Gaplarning asosi bo‘lgan so‘zlarni tartibi bo‘yicha belgilang.

Uyingizda qanday zamonaviy texnik qurilmalar bor? Ular haqida 3 ta gap tuzing.



4-mashq. **Nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.**

Shifokor odamlarni ... .

... bolalarni o‘qitadi.

Haydovchi yo‘lovchilarni ... .

Oshpaz ... pishiradi.

Yozuvchi asar ... .

Hunarmand ... yasaydi.

- Har bir gapning asosiy mazmunini bildirgan so‘zlarni aniqlang va ularning tagiga tegishli chiziqlarni chizing.

Foydalanish uchun so‘zlar:

o‘qituvchi	taom	yozadi
davolaydi	buyum	tashiydi

5-mashq. O‘qing.

Bundan ming yil oldin, xitoyliklar poroxni ixtiro qiladi. Poroxdan mushaklar yasaladi. Bu mushaklar hozirgi raketalarning jajji ko‘rinishi edi. Asrlar o‘tib, olimlar ulkan raketalar yaratishga kirishadilar. Raketa bilan fazoga uchish mumkin edi. 1961-yili Yuriy Gagarin fazoga uchiriladi. Amerikalik fazogirlar hatto Oyga borib kelishadi. Endi bo‘lsa, olimlar fazogirlarni Mars sayyorasiga uchirishmoqchi. Yaqin yillarda Starship nomli fazo kemasi Marsga uchirilishi mumkin.





1. Televizor orqali fazo kemasining parvozini kuzatganmisiz?
2. Nima deb o‘ylaysiz, fazo kemasi qanday uchadi?
3. Siz ham fazogir bo‘lishni orzu qilasizmi?

- Ajratib ko‘rsatilgan gaplarni ko‘chiring. Ulardagi qaysi so‘zlar bir-biriga mazmunan bog‘lanayotganini aniqlashga harakat qiling.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

So‘zlar mazmun jihatidan o‘zaro bog‘lanib, gap hosil qiladi.



6-mashq. Gapni yozing.

- Chizmalar yordamida mazmunan bir-birga bog‘langan so‘zlarni bilib oling.



1. Qaysi so‘zlar gapning asosi?
2. Bir-biriga bog‘langan so‘zlar gapdan ajratib olinganida ham biror ma’noni anglatadimi?

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Mazmunan bir-biriga bog‘langan so‘zlarni so‘roq berish yo‘li bilan aniqlash mumkin.

(Nimalar?) mevalar (nima qiladi?) pishadi.

Mevalar so‘ziga mazmunan bog‘langan so‘zga so‘roq bering: (qanday?) *mazali mevalar*.



7-mashq. Gaplardagi mazmunan bir-biriga bog‘liq so‘zlarni aniqlang. Ularni chizmaiar yordamida bog‘lang.



Ayiqlar quyuq o‘rmonda yashaydilar.



Yer Quyosh atrofida aylanadi.



Bahorda birinchi bo‘lib bodom gullaydi.



Kechalari oymomoni kuzatish maroqli.

Fazo kemalari haqida 3 ta gap tuzing. Gaplardagi asos so‘zlarni belgilang.

8-mashq. O‘qing. Ajratilgan gapni yozing. Gapning asos so‘zlarini belgilang.

Marskezar

1996-yili olimlar Mars sayyorasiga o‘zi yurar robotlarni uchirishadi. Bunday qurilma “marskezar” deb ataladi. Hozirga qadar beshta marskezar qo‘shni sayyoraga yetib borgan. Bu robotlar Mars sayyorasida harakatlanib, tuproqning tarkibini o‘rganadi. Sayyoraning suratlarini olib, ularni yerdagi olimlarga yuboradi. Olimlar suratlarni yaxshilab ko‘rib chiqishadi. Marskezar yuborgan boshqa ma’lumotlarni o‘rganishadi. Shunday qilib Mars sayyorasi haqidagi bilimlar ko‘payadi. Yaqin kelajakda, boshqa sayyoralarga ham ana shunday robotlar uchiriladi.



1. Marskezarni televizor orqali ko‘rganmisiz?
2. Nima deb o‘ylaysiz, Marsda ham odamlar yashashi mumkinmi?



9-mashq. Maqollarni o‘qing. Mazmunini aytib bering.

1. Aql ko‘kka yetkazar.
2. Bilimsiz kishiga ish yo‘q,
   Ilmsiz kishiga osh yo‘q.
3. Nolish bilan ish bitmas,
   Mard nomardga tiz cho‘kmas.
4. Ilm baxt keltirar,
   Bilim taxt keltirar.
5. Davlat tugar, bilim tugamas.

- Maqollarni oddiy so‘zlashuvdagi gaplarga aylantirib yozing. Gapdagi so‘zlarning o‘zaro bog‘liqligini toping.

Namuna: *Aql ko‘kka yetkazar –*
Aql odamni ko‘kka yetkazadi.

10-mashq. **O‘qing.**

Mikroskop

Mikroskopni Zaxariy Yansen ixtiro qilgan. U ko‘zoynaklar ustasi bo‘lgan. Usta ko‘zoynak shishalarini ustma-ust qo‘yib, ularni kichik quvurga joylaydi. Shunday qilib mayda zarralarni ham kattalashtirib ko‘rsatadigan qurilma paydo bo‘ladi. Mikroskopda eng avval burgalar o‘rganilgan.



Ko‘p o‘tmay, mikroskopdan olimlar turli ilm yo‘lida foydalana boshlashadi. Ular ko‘zga ko‘rinmaydigan mayda zarralarning ham aslida katta bir olam ekanini tushunib yetishdi. 1665-yili ingliz olimi Robert Guk mikroskop yordamida hujayralarni kashf qildi. Zamonaviy mikroskoplar yordamida esa hujayradan ham million marta kichikroq narsalar borligi aniqlandi.

1. Mikrob, bakteriya va virus kabi ko‘zga ko‘rinmas mavjudotlar haqida eshitganmiz?
2. Mikroskop biz odamlarga qanday yordam berishi mumkin?

- Ajratilgan gaplarni yozing. Mazmunan bir-biriga bog‘liq so‘zlarni chizmalar yordamida ko‘rsating.

Matematika fani haqida to‘rtta gap tuzib yozing.

11-mashq. Rasmga qarab, kichik hikoya yozing.



- Hikoyadagi gaplarning asosi bo‘lgan so‘zlarni belgilang.

12-mashq. Guruh-guruh bo‘lib bajaring. Sinf ikki jamoaga bo‘linib, gap tuzish bo‘yicha bellashadi.

- Jamoalar uchtadan maqol yozadilar va o‘zaro almashadilar.
- Har ikki jamoa o‘zlariga berilgan maqollarning mazmunini oddiy gaplar shaklida yozib berishlari kerak.
- Qaysi jamoa maqolning ma’nosini to‘g‘ri tushunsa va gaplarni to‘g‘ri tuzsa, g‘olib bo‘ladi.
- G‘olibni o‘qituvchi aniqlaydi.

Quyoshning vazifalari haqida gaplar tuzing.

Vof!

SAN'AT VA MEN

Dunyo tillari

– Bobojon, men bir narsaga tushunolmayapman.

– Nimaga tushunmayapsan, bolajonim?

– Hayvonlar ham gaplashadimi?

Hola!

– Ha, hayvonlar ham gaplashadi. Masalan, maymunlar qichqirib sheriklariga zaharli ilonni ko'rganini aytishi mumkin. Itning vovullashida ham, mushukning miyovlashida ham qandaydir xabar bo'ladi.

– Xabar deysizmi?

– Ha, masalan, qornim ochdi, chanqadim, qo'rqyapman degan xabarlar. Lekin unutma, tovushlardan so'zlarni, so'zlardan gaplarni tuzish faqat odamlarga xos. Buni nutq deyishadi.

– Nega faqat odamlar?

– Chunki odam – dunyodagi yagona aqlli mavjudot.

– Tushundim, demak gapirish uchun ham aql kerak bo'ladi.

Quqariqu!

O'ylab ko'ring.

1. Gapirish uchun insonga nimalar kerak?
2. Nega odamlar turli tillarda gaplashadilar?
3. Nima deb o'ylaysiz, chumolilar va asalarilar qanday qilib gaplashishadi?

Ni hao!

1-mashq. Rasmga qarang. Savollarga javob bering.



1. Bolalar qaysi tillarda salom berishyapti?
2. Siz yana qanday tillar haqida eshitgansiz?
3. Boshqa tillarni bilish nima uchun kerak?

2-mashq. Rasmga qarab, gapni davom ettiring.



- Qizaloqning javobini yozing. U nima deb javob berdi?

3-mashq. O‘qing.

Tasavvur qiling, bir kuni odamlar gapirishni va yozishni bilmay qolishdi. Endi nima bo‘ladi? Muhim gaplarni oyingizga qanday aytasiz? Do‘stlaringiz bilan qanday gaplashasiz? O‘qituvchi qanday dars o‘tadi? Ha, buni tasavvur qilish qiyin. Odamlarga juda og‘ir bo‘ladi. Hayotimiz butunlay o‘zgarib ketadi.

1. Biz nima uchun gapiramiz?
2. Gapirishni unutib qo‘ysak, yana qanday muammolar paydo bo‘ladi?

4-mashq. O‘qing. Savollarga javob bering.

Odamlar bir-biri bilan suhbatlashish uchun gapiradilar. Agar dunyoda faqat bitta odam yashaganida gapirishning keragi yo‘q edi. Odamlarning gapirish qobiliyati nutq deyiladi. Nutq xabar berish yoki savol berish uchun kerak. Nutq ikki xil bo‘ladi. Birinchisi, og‘zaki nutq. Og‘zaki nutqda odam o‘z fikrini gapirib yetkazadi. Ikkinchisi, yozma nutq. Yozma nutqda odam o‘z fikrini yozib yetkazadi.

1. Odamlarning gapirish qobiliyati nima deb ataladi?
2. Yozma nutqning og‘zaki nutqdan farqi nima?

“Odamlar nega gapiradilar?” savoliga javob beruvchi 3 ta gap yozing.

5-mashq. Rasmga qarab, savollarga javob bering.




1. Bolalar qayerda?
2. Bolalar nima xarid qildi?
3. Muzqaymoqni ko‘p yeyishning qanday oqibatlari bor?
4. Savollarga javob berganda qanday nutqdan foydalandingiz?

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Nutq kishilarga shaxs va narsa haqida xabar berish yoki so‘rash uchun kerak.



6-mashq. O‘qing. Matndagi ism va familiyalarni yozing.



Og‘zaki nutq



Yozma nutq

- Og‘zaki va yozma nutqning farqini tushuntirib, bu haqida bir-biriga bog‘langan 4 ta gap tuzing.

7-mashq. O‘qing. Tushunganlaringizni qisqacha yozing.

Buvilarimiz biror muhim ishni unutib qo‘ymaslik uchun ro‘molining uchini tugib qo‘yar ekan. Keyinroq tugilgan ro‘molni ko‘rib, o‘sha yumush yodga kelar ekan-da. Qizig‘i, bu ham yozuvning bir ko‘rinishidir. Odamlar hali yozuv ixtiro qilinmagan vaqtlarda ana shunday “buyumli yozuv” yordamida xabar almashishgan. Masalan, ovchilar biror narsa qoldirib, bu joyda yirtqich hayvonning uyasi borligidan qabiladoshlarini ogohlantirgan.



Yozuvni taxminan 10 ming yil oldin hozirgi Suriya hududida yashagan xalqlar kashf qilgan. Dastlabki yozuvlar piktogramma (surat-yozuv) bo'lgan. Bunda odamlar gap yoki so'zni biror narsaning surati bilan ifodalagan.

Piktogrammalar tosh, suyak yoki g'or devorlariga yozilgan. Keyinchalik odamlar har bir tovush uchun alohida-alohida harf o'ylab topilsa, yozish uchun qulay bo'lishini anglab yetdilar.

Shunday qilib, ilk harfli yozuvni uch yarim ming yil oldin finikiyaliklar kashf etishdi. Finikiy alifbosi 22 ta harfdan iborat edi. Finikiy yozuvi o'rganish va yozish uchun qulay bo'lgani sababli tez orada butun dunyo bo'ylab tarqaldi. Hozirgi yozuvlarning deyarli barchasi qadimgi finikiy yozuvi asosida shakllangan.

"Jajji akademik" jurnalidan

1. Yozuv nima?
2. Yozuv ixtiro qilinguniga qadar odamlar qanday xabar almashgan?
3. Suratli yozuv – piktogrammaning oddiy yozuvdan farqi nima?
4. Siz yozuvning qanday turlarini bilasiz?



Chet tillarini bilishning foydasi haqida 3 ta gap tuzing.

8-mashq. O‘qing. Savollarga javob bering.

Poliglot kim ekanini bilasizmi? “Poliglot” yunon tilidan olingan so‘z bo‘lib, ko‘p tilni biluvchi kishi degan ma’noni anglatadi. Shuni alohida faxr bilan ta’kidlaymizki, dunyodagi eng birinchi poliglotlar ona yurtimizdan yetishib chiqqan. Abu Rayhon Beruniy ana shunday tengi yo‘q allomalardandir. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Beruniy turkiy tildan tashqari arab, yunon, fors, qadimgi hind, suryoniy, yahudiy singari kamida 20 ta xorijiy tilni puxta bilgan.

1. Qanday odamlar poliglot hisoblanadi?
2. Nima deb o‘ylaysiz, Beruniy bobomiz nega ko‘p tillarni o‘rgangan?

9-mashq. Rasmlarga qarab, 3 ta og‘zaki nutqda, 3 ta yozma nutqda gap tuzing.





10-mashq. O‘qing.

To‘rt kishi

Bir odam to‘rt kishiga pul berdi va:

– Bunga biror narsa sotib olib, qorningizni to‘ydiring, – dedi.

To‘rtovlondan biri eronlik edi.

– Men bu pulga angur olaman, – dedi u.

Ikkinchisi arab edi.

– Yo‘q, – dedi u, – men inab xohlayman.

Uchinchisi turkiylardan edi.

– Aytganlaring menga kerak emas. Men uzum olmoqchiman, – dedi bunisi.

To‘rtinchi kishi esa rumlik edi.

– Bas qiling! Men istafil olmoqchiman, – deya baqirdi u.

Avvaliga ovozlari ko‘tarildi, keyin baqirib-chaqirishdi, so‘ngra janjal boshlandi.

Nihoyat, hammasining tilini tushunadigan ilmli bir odam janjalni ko‘rib, ularni to‘xtatdi. Har birini eshitdi.

Keyin shunday dedi:

– Menga quloq solsangiz, kelishib olasiz.

So‘ngra ularga uzum olib berdi. Shunday qilib janjal nihoyasiga yetdi. Chunki to‘rtovlari ham aslida bir narsani, ya’ni uzumni xohlar edilar-da.

“Qissadan hissa” kitobidan

1. Odamlar nega janjallashib qoldi?
2. Nega ularning bari bir narsani istasa ham kelisha olishmadi?
3. Hikoyadan qanday ibrat olish mumkin?

- Hikoyadagi qahramonlarning nutqini aniqlang. Qahramonlar nutqini ko‘chiring.

11-mashq. Rasm asosida “Xorijlik sayyohlar” nomli kichik hikoya tuzing.



12-mashq. Jamoalarga bo‘linib, gap tuzish bo‘yicha bellashamiz.



1. Ingliz, rus va o‘zbek tillari haqida 4 ta gap tuzing.
2. Siz qaysi davlatga borishni orzu qilasiz? Shu haqida kichik hikoya yozing.



Mening shirin suhbatlarim

– Bobojon, Valijon amaki sizdan kichkina-ku, nega salom berdingiz?

– Salom berayotganda kishining yoshiga qarama. Kim birinchi salom bersa, ko‘proq savob oladi. Ammo hozir Valijonning oldida boshqa odamlar ham bor edi. Ko‘pchilikka kamchilik salom beradi.

– Salom bergandan so‘ng yana nima qilish kerak?

– Agar yaqin tanishing bo‘lsa, undan hol so‘ra.

– Iltimos, buni ham o‘rgating!

– “Salomatmisiz?”, “Yaxshi o‘qiyapsizmi?” kabi savollarni berish hol so‘rash hisoblanadi.

– Tushundim.

– Yana birov bilan suhbatlashganda uning yoshiga e’tibor qil. Katta odamlar bilan suhbat qurganda ko‘p gapirish, ortiqcha savollarni berish odobdan emas.

– Xo‘p bo‘ladi, bobojon!



O‘ylab ko‘ring.

1. Siz ko‘proq kimlar bilan suhbat qurasiz?
2. Suhbatlashganda nimalar haqida gapirishni yoqtirasiz?

- Suhbat qurganda nimalarni gapirmaslik kerak deb hisoblaysiz?

1-mashq. Rasmga qarang.



- Sizningcha, bolalar nima haqida suhbat qurishyapti? Ularning suhbatini yozing.

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Ikki yoki undan ortiq odamning o‘zaro so‘zlashuvi suhbat deb ataladi.

2-mashq. Suhbatni o‘qing va yozing.

Komiljonga onasi uqtirdi:

– Komiljon, sen o‘zingdan kattalarni hurmat qilishing, ularni sensiramay, sizlab gapirishing kerak.

– Ulug‘bek akamni hammi?

– Ha, u ham sendan katta.

– E, botinkasi oyog‘imga loyiq-ku.

“Jajji akademik” jurnalidan



1. Komiljonning suhbatdoshi kim edi?
2. Ular nima haqida suhbat qurishdi?
3. Komiljonning so‘ngi gapi nega kulgili?

Suhbat odoblari bilan tanishing.



Suhbatdoshingni qunt bilan eshit. Gapini bo'lma.



Baland ovozda gapirib boshqalarga xalal berma.



Kattalarni hurmat qil.



Band odam bilan suhbat qurma.



Ko'p gapirib, vaqtni behuda sarflama.



Qo'pollik qilma. Suhbatdoshingni hurmat qil.

3-mashq. Rasmlarga qarang. Yuqoridagi suratlarning har biriga mos suhbat tuzib yozing.


Jonli suhbat


Telefondagi suhbat


Videoaloqa


SMS

1. Nima deb o'ylaysiz, suhbat qurishning boshqa turlari ham bormi?
2. Yuqoridagi suhbat turlarining qay birida muloqot qilgansiz?
3. Suhbat turlarining qay biri siz uchun qulay?

- Yuqoridagi suratlarning har biriga mos suhbat tuzib yozing.

Eng yaqin do'stingiz bilan bo'lgan suhbatni yozing.

4-mashq. Rasmga qarab, gapni davom ettiring.

– Assalomu alaykum, do‘konimizga xush kelibsiz.
– ...



1. Do‘konga kirgan odam o‘zini qanday tutishi kerak?
2. Sotuvchi bilan gaplashganda nimalarga e’tibor berish kerak?

5-mashq. Partadoshingiz bilan suhbatlashing. Biringiz mehmon, biringiz mezbon bo‘ling.

Ko‘chada ikki notanish bola uchrashib qolishdi. Ularning biri mehmon edi. Mehmon yo‘lidan biroz adashib qolgan ekan. Mezbon va mehmon qanday suhbat qurishdi?

Oila a’zolaringiz bilan maktab hayoti haqida suhbat quring. Suhbat mazmunini yozing.



6-mashq. Suhbatni ko‘chiring.

– Assalomu alaykum, xush kelibsiz!
– Vaalaykum assalom, bu Komilovlarning uyimi?
– Xuddi shunday.
– Sizlarga xat olib kelgandim.
– Rahmat, men hozir oyimni chaqiraman.

1. Uyga kelgan mehmon bilan qanday suhbat qurish kerak?
2. Siz tanimagan odam uyingizga kelib qolsa, o‘zingizni qanday tutasiz? U bilan qanday suhbatlashasiz?



7-mashq. O‘qing.

Har kim o‘z ona tilini hurmat qilishi zarur. O‘z tilini hurmat qilmaslik ota-onani hurmat qilmaslikka o‘xshaydi. Ayrimlar suhbat qurganda so‘zlarni noto‘g‘ri talaffuz qiladi. O‘zbek tilida so‘zlasa ham ruscha, inglizcha so‘zlarni qo‘shib gapiradi. Yozganda xato yozadi. Sh harfini w, ch harfini 4 shaklida yozadiganlar ham topiladi. Bular tilga nisbatan hurmatsizlikdir.

1. Tilga hurmatsizlikning qanday ko‘rinishlarini bilasiz?
2. Nega har kim o‘z ona tilini hurmat qilishi zarur?

8-mashq. **Hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlarni toping.**

Bunday vaziyatlarda qanday suhbat qurasiz?



Uyga qo‘ng‘iroq bo‘lganda



Uyalib turgan o‘rtog‘ingizni o‘yinga taklif qilganda



Yordamga muhtoj qariyani ko‘rganda

9-mashq. **Suhbatni ko‘chiring.**

Salom

Qales?

Men erta maytapga bormiman

Voy nme?

Wamollab qoldim

Tezroq tuzalib keting. Dorilani vaqida i4ing.

1. Bolalar SMS yozganda qanday xatolarga yo‘l qo‘yishdi?
2. Siz ham SMS yozganmisiz?
3. Yozganda xato qilmaslik uchun nimalarga e’tibor qilish kerak?

Multfilm tomosha qiiib, qahramonlarning suhbatini yozing.

10-mashq. Rasmlardan birortasini tanlab, hikoya tuzing. Hikoyangizda qahramonlarning suhbati bo‘lsin.









11-mashq. Sinf to‘rt guruhga bo‘linib, suhbat tuzishda bellashadi.

Har bir guruh quyidagi suhbatdoshlarning birini tanlaydi:

haydovchi – yo‘lovchi
shifokor – bemor
o‘qituvchi – o‘quvchi
aka – uka

Siz kim bilan suhbatlashishni orzu qilasiz? Bu haqida qisqacha hikoya tuzing.

Maktabimiz devoriy gazetasi



Sherzod: Bobo, nima o‘qiyapsiz?

Bobo: Gazeta o‘qiyapman.

Sherzod: Gazetada nimalar yoziladi?

Bobo: Odatda, gazetada yangiliklar, turli e’lonlar chop etiladi. Maktablarda ham devoriy gazetalar tashkil qilish mumkin.

Sherzod: Qanday?

Bobo: Devorga osib qo‘yiladigan gazeta. Unda maktab hayoti bilan bog‘liq turli yangiliklar, a’lochi o‘quvchilar haqida ma’lumotlar, tug‘ilgan kun tabriklarini berib borish mumkin.



O‘ylab ko‘ring.

1. Maktabingizda devoriy gazeta bormi?
2. Devoriy gazeta qanday bo‘lishi kerak?

- **Devoriy gazetada** nimalar haqida yozgan bo‘lar edingiz?



1-mashq. Ko‘chiring. Ikkita so‘z bir-biriga qo‘shilishidan paydo bo‘lgan yangi so‘zlarning tagiga chizing.



1. Oxirgi marta maktabingizda qanday voqealar sodir bo‘ldi?
2. O‘zingiz mustaqil ravishda devoriy gazeta uchun matnlar yoza olasizmi?
3. Siz qanday mavzularda matnlar yozgan bo‘lar edingiz?

Yodda tuting. Qoidani tushunib oling.

Mazmunan bir-biriga bog‘langan ikki yoki undan ortiq gap *matn* deyiladi. Matnga sarlavha qo‘yish mumkin.



2-mashq. O‘qing.



Mening ismim Sherzod. Shirinliklarni ko‘p iste’mol qilish sog‘lik uchun zarar. Qish kelishi bilan ayiqlar uyquga ketadi. Nozima ko‘p kitob o‘qiydi.

Mening ismim Shohida. 152-maktabning 2-“A” sinfida o‘qiyman. Darsdan tashqari vaqtlarda ingliz tili to‘garagiga qatnashaman. Turli uy hayvonlarini, ayniqsa, mushuklami yaxshi ko‘raman.

1. Qaysi ustundagi gaplar mazmunan bir-biriga bog‘langan?
2. Mazmunan bir-biriga bog‘langan ikki yoki undan ortiq gap nima deb ataladi?

3-mashq. Berilgan gaplarni mazmunan bir-biriga bog‘lab, matn hosil qiling.

- Ertalab turib, yuz-qo‘limni yuvaman.
- Darslar tugagach, to‘garaklarga qatnashaman.
- So‘ng maktabga boraman.
- Keyin nonushta qilaman.



Uyga vazifa. Nonushta haqida beshta gapdan iborat matn tuzing.

4-mashq. O‘qing.

Ijodkor bo‘lish uchun

Ijodkor bo‘laman degan bola ko‘p o‘qishi, bilimdon bo‘lishi shart. Yo‘qsa, yaxshi va ishonarli asar yozib bo‘lmaydi. Kimdir: “Chigirtka qo‘ng‘izni yeb qo‘ydi” yoki “Sahroda lolalar o‘smoqda”, – deb yozsa, bilingki, u tabiiy fanlarni yaxshi o‘qimagan. Axir, hech zamonda chigirtka qo‘ng‘iz yerkanmi? Sahroda esa lolalar o‘sarkanmi?! Yozilgan asar o‘quvchiga biror foydali ma’lumot berishi, bilmaganini bildirishi lozim.

Anvar Obidjon

1. Siz ham she’r va hikoyalar yozib turasizmi?
2. She’r va hikoya yozganda nimalarga e’tibor qaratish kerak?
3. Nima uchun “Sahroda lolalar o‘smoqda”, – deb yozish xato?

5-mashq. Berilgan maqollarning mazmunini bir nechta gap bilan ifodalab, kichik matn tuzing.

O‘qigan – olim, o‘qimagan – o‘ziga zolim.

Mehnat, mehnatning tagi – rohat.

6-mashq. Rasmga diqqat qiling. Mazmunan bir-biriga bog‘langan to‘rtta gapdan iborat matn tuzing.



- Tuzgan matningizga sarlavha o‘ylab toping.

7-mashq. O‘qing. Matnga mos sarlavhani tanlang.

Ukam ikkimiz jonivor va qushlarni yaxshi ko‘ramiz. Bu xislat bizga bobomdan o‘tgan bo‘lsa kerak. Chunki bobomning uylari xuddi hayvonot bog‘iga o‘xshaydi. Bobom hovlilarida jonivor va qushlar uchun maxsus xonalar qurganlar. U yerda quyon, tipratikan, qo‘zichoq, buzoq, tovuq, kurka, kaptar va kaklik bor.

“Gulxan” jurnalidan

- Nega aynan shu sarlavhani tanlaganingizni tushuntiring.

Uyga vazifa. *“Mening bir kunim”* degan sarlavhali matn tuzing.

8-mashq. She'rni ifodali o'qing.

Masxaraboz

Hayvonot bog'idagi
Maymun sakrab o'ynaydi.
Birovlarni kalaka
Qilishni hech qo'ymaydi.

Kulgi bo'lar hammaga
Qilmishiga yarasha,
O'zgalarni mazax qilib
O'zi bo'lar tomosha.



1. Nega she'rga ***"Masxaraboz"*** degan sarlavha qo'yilgan?
2. Boshqalarni masxara qiladi-yu, ammo o'zi ham kulgiga qoladigan bolalar bormi?

- She'rdagi voqealarni to'rtta gapdan iborat matn shaklida yozing.

9-mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zni qo‘yib, matnni ko‘chiring.

Bobom meni yosh fermer, deb ... . Yana beshta ... olib berarmish. Hammasi bo‘lib o‘n bitta bo‘ladi. Qiziq, yangi tovuqlarim bilan ... qanday do‘stlashar ekan? Juda qiziq. Men bobomning aytganlarini ... . Ular do‘stlashib ketishiga ishonaman.

O‘ktam Mirzayor

Foydalanish uchun so‘zlar:

ataydi	eskilari
tovuq	qilaman

10-mashq. Kalit so‘zlardan foydalanib, matn tuzing.

Foydalanish uchun so‘zlar:

anor	kuz
mazali	bog‘

Yodda tuting! Qoidani tushunib oling.

Matndagi eng muhim so‘zlarni *kalit so‘zlar* deb ataymiz. Chuni bu so‘zlar kalit qulfni ochganiday, matnning mazmunini ochib beradi.



11-mashq. O‘qing. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zni qo‘yib, matnni ko‘chiring.

Hovlimiz katta. Har yili tomorqamizga pomidor ekamiz. Chunki biz uni sevib iste’mol qilamiz. Yana pomidorni sotsangiz yaxshigina daromad ham keltiradi. Odatda, pomidor 20-apreldan 10-maygacha ekiladi. Pomidor suv, quyosh va o‘g‘itni yaxshi ko‘radi. Ozroq mehnat va vaqt sarflasangiz kifoya. Tez orada hosilga kiradi.

“Jajji akademik” jurnalidan



1. Pomidor haqidagi matnni tushunish uchun qaysi so‘zlar ko‘proq kerak bo‘ldi?
2. Qaysi so‘zlarni o‘zgartirsangiz yoki olib tashlasangiz ham matnning mazmuni o‘zgarmaydi?
3. Qaysi so‘zlar olib tashlansa matnni umuman tushunib bo‘lmaydi?

***Maktab, o‘qituvchi, dars* kalit so‘zlaridan foydalanib, matn tuzing.**

12-mashq. Rasmga qarab, to‘rtta gapdan iborat matn tuzing.



13-mashq. **Ikki guruhga bo‘linib, alohida-alohida devoriy gazeta yaratamiz.**

Kerak bo‘ladi:

Katta o‘lchamli oq qog‘oz;

Rangli ruchka va qalamlar.

- Har bir guruh o‘zlarining tasavvuridagi devoriy gazetani yaratadilar.
- Devoriy gazetada qiziqarli xabarlar, maktab hayoti bilan bog‘liq yangiliklar, e’lonlar va turli suratlar bo‘lishi mumkin.
- Qaysi guruhning devoriy gazetasi chiroyli chiqsa va matnlar yaxshi yozilsa, shu guruh g‘olib bo‘ladi.



SOG‘ TANDA SOG‘LOM AQL

O‘qib uqmoq kerak



Ona: To‘xta, Sherzod, nima qilyapsan?

Sherzod: Boshim og‘riyapti. Shuning uchun dori ichmoqchiman.

Ona: Bu nimasi, o‘zingcha ichaverasanmi?

Sherzod: Dadam boshi og‘risa, shu doridan ichadi-ku.

Ona: Yo‘q, avval dori qutining ichidagi yo‘riqnomani o‘qish kerak. Mana, qara: “12 yoshga to‘lmagan bolalarga mumkin emas” deb yozib qo‘yibdi!

Sherzod: Men buni bilmagandim.

Ona: Shuning uchun ham yo‘riqnomani o‘qish kerak. Endi biror dorini ichishdan oldin mana shunday matnlarni erinmay o‘qi va nima qilish kerakligini tushunib ol.



O‘ylab ko‘ring.

1. Dori qutisi ichidagi yo‘riqnomalarni ko‘rganmisiz?
2. Shokolad, saqich yoki ichimlik qadog‘i matnlarini o‘qiganmisiz?

- Yo‘riqnomalar nega kerak deb o‘ylaysiz?

1-mashq. **Yo‘riqnomadagi matnni o‘qing.**

Mikroto‘lqinli pechdan foydalanishda xavfsizlik qoidalari



Ovqatni juda uzoq vaqt isitmang.

Qurilmani suvdan himoyalang.

Turli buyumlarni qurilmaning ustiga qo‘ymang.

Ovqatni isitishda hech qachon metall idishlardan foydalanmang.

1. Xavfsizlik yo‘riqnomasini o‘qib nimalarni tushunib oldingiz?
2. Mikroto‘lqinli pechdan foydalanganda yana nimalarga amal qilish kerak?
3. Yangi qurilma sotib olinganda quti ichidagi “Foydalanish yo‘riqnomasi” kitobini ko‘rganmisiz?

2-mashq. O‘qing. Kalit so‘zlarni aniqlang va yozing.

Mahsulot tarkibi

Mahsulot qadog‘idan “Tarkibi” degan so‘zni izlab toping. Tarkibni ko‘zdan kechirayotganda eng birinchi uchta moddaga e’tibor qarating. Eng birinchi uchta moddalar o‘rnida shakar, to‘yintirilgan yog‘lar (hayvon yoki kokos yog‘i), ishlov berilgan don mahsulotlari bo‘lsa, ularni iloji boricha kamroq sotib oling. Shakar va zararli yog‘lar semirib ketishga sabab bo‘ladi. Yana tishga kariyes tushiradi. Ishlov berilgan don mahsulotlari esa o‘zidagi vitaminlarni butunlay yo‘qotgani uchun sog‘lig‘ingizga deyarli hech qanday foyda keltirmaydi.

“Jajji akademik” jurnalidan

1. Matnni o‘qib, nimalarni tushundingiz?
2. Qaysi so‘zlar matnni tushunish uchun ko‘proq yordam berdi?
3. Hozirning o‘zida biror mahsulot qadog‘idagi matnlarni o‘qiy olasizmi?

3-mashq. Rasmlarga qarang.




Ayrim karton qutilarning ustida mana bunday suratlar bo‘ladi. O‘ylab ko‘ring, bu suratlar nimani anglatadi? Bu haqida matn yozing.

4-mashq. Matnni diqqat bilan o‘qing.

Dovyurak podshoh

Zahiriddin Muhammad Bobur bolalikdan dovyurak va jasur bo‘lgan. Shuning uchun odamlar uni “Bobur”, ya’ni “sher” deb atashgan. Aytishlaricha, u ikki qo‘ltig‘ida ikki odamni olib, qal’a devori ustida mashqlar qilar edi. Bobur Mirzo 12 yoshida saltanat taxtiga o‘tirib, davlatni boshqaradi. U faqatgina kuchli emas, balki aql-zakovatda ham tengsiz edi.



- Matnni o‘qib tugatgach, o‘zingizga quyidagicha savollar bering.

Savol: Matn kim yoki nima haqida?
Javob: Matn Bobur haqida.

Savol: Bobur kim edi?
Javob: Bobur podshoh edi.

Savol: Bobur qanday odam edi?
Javob: Bobur jasur va aqlli odam edi.

5-mashq. O‘qing.

Gulzor

Bir kuni dadam gul ko‘chatlarini olib keldilar. Oyim, singlim va men ularni hovlimizga ekdik. Yoz keldi. Dadam safarga ketishimizdan oldin gullarni parvarish qilishimizni tayinladilar. Ular qaytgunlaricha hovlini yashnatib, gulzorga aylantirdik.



- O‘zingizga savollar berib, matnni yaxshilab tushunib oling. Savol va javoblarni daftarga yozing.
- O‘ylab ko‘ring-chi, qaysi gapni olib tashlasa, matn mazmuni umuman o‘zgarmaydi?

6-mashq. Matnni o‘qib, topishmoq javobini toping.

Kimga nima?

Uch dugona maktab oshxonasiga kirishdi.

Ulardan biri shirin choy, ikkinchisi pirog, uchinchisi esa sharbatga buyurtma berdi.

Kamola sharbatga buyurtma bermagandi.

E’zoza sharbatga ham, pirogga ham buyurtma bermagan edi.

Malika nimaga buyurtma bergan?



- Topishmoqni yechish uchun qaysi gaplar yoki so‘zlarga ko‘proq e’tibor qilish kerak?

7-mashq. Matnni o'zgartirib yozing.

Jamshid ***beodob, dangasa*** bola. Uy ishlarida ota-onasiga yordam ***bermaydi.*** Har kuni ***"2"*** baho olib, ularni ***xafa*** qiladi. Ishdan horib kelgan ota-onasiga ***ikki*** baholarini ***qo'rqib*** ko'rsatadi.



- Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni shunday so'zlar bilan almashtiringki, natijada Jamshid ikkichi emas, a'lochi bo'lib qolsin.

8-mashq. She’rni ifodali o‘qing.


Chumolilar

Chumolilar rosa qiziq,
Yo‘lkalari chiziq-chiziq.
Chumolining ishlagani –
Og‘zida don tishlagani.

Ko‘rgansiz-u izg‘iganin,
Ko‘rmagansiz mizg‘iganin.
Hammalari harakatda,
Safida yo‘q lavang-latta.

Ularda zo‘r bo‘ladi did,
Uzoqdan ham sezarlar hid.
Hidni izlab ketaverar,
Maqsadiga yetaverar.

Po‘lat Mo‘min



Kitobni yopib, she’r mazmunini matn qilib yozing.

9-mashq. Gaplarning ketma-ketligini to‘g‘rilab, matnni ko‘chiring.

Oyisi esa unga turli rangdagi iplar olib beradi.

U chiroyli nimcha va paypoqlar to‘qiydi.

To‘qiganlarini ukasi va singlisiga sovg‘a qiladi.

Madinaning qo‘li gul.

10-mashq. Qarama-qarshi ma’noli so‘zlar ishtirokida matn tuzing.



Kun

Quyosh

Issiq

Oy

Sovuq

Tun

11-mashq. Matnni o‘zgartirib yozing.

Uyquni ba’zilar dangasalik alomati deydi. Ammo me’yorida uxlash salomatlik garovidir. Ayniqsa, bolalarning sog‘lom ulg‘ayishida uyquning foydasi katta. 8-9 yoshli bolalar “a’lo” bahoga o‘qish uchun kunduzi kamida bir soat uxlashni odat qilishlari kerak. Ayniqsa, darsdan tashqari mashg‘ulotlarga qatnashadigan bolalar kunduzgi uyquga rioya qilishlari shart. Bu yoshdagilar bir sutkada 9-10 soat uxlab olishlari lozim.





1. Matn nima haqida?
2. Matnda qanday foydali tavsiyalar berilgan?

- Matnni ayrim gaplarni olib tashlab ko‘chiring. Shunday qilingki, matnning mazmuni o‘zgarmasin.

Uyga vazifa. *“Sevimli qahramonim”* sarlavhasi ostida matn tuzing.

12-mashq. Rasmga qarab, kichik hikoya yozing.



Uyga vazifa. To‘rtta gapdan iborat matn tuzib, maqol mazmunini tushuntiring.

Kamtarga – kamol,
Manmanga – zavol.

Ham foydali, ham mazali

Sherzod: Oyijon, yashil o‘yinchog‘imni yo‘qotib qo‘ydim. Topishga yordam bering, iltimos.

Ona: U qanaqa edi?

Sherzod: Aytdim-ku, yashil o‘yinchoq.

Ona: O‘g‘lim, axir yashil rangli o‘yinchoqlaring ko‘p-ku. Qaysi birini izlayotganingni qayoqdan bilaman? Yaxshisi, sen o‘sha o‘yinchoqni ta’riflab ber.

Sherzod: Ta’riflab berish?

Ona: Ha, sen o‘sha o‘yinchoqning ko‘rinishini, nimadan yasalganini aytib berishing kerak.

Sherzod: Uning to‘rt oyog‘i, uzun dumi bor. Ikki old oyog‘ini yuqoriga ko‘tarib, og‘zini katta ochib turadi. Tishlari uchli va qo‘rqinchli. Rangi esa yashil.

Ona: Mana shuni ta’riflash deydilar! Dinozavr o‘yinchog‘ingni ertalab yotog‘ingning tagidan topib oldim. Akangning xonasida turibdi.



O‘ylab ko‘ring.



1. Sevimli o‘yinchog‘ingizni yo‘qotib qo‘ysangiz, qanday ta’riflaysiz?
2. Xorijdan kelgan mehmonga O‘zbekistonni qanday ta’riflash mumkin?

Ham foydali, ham mazali qanday mahsulotlarni bilasiz?

1-mashq. Meva va sabzavotlarning ko‘rinishi, hajmi, ta’mi, foydali xususiyatlariga ko‘ra ta’rifini yozing.

1. Nima deb o‘ylaysiz, bu meva va sabzavotlarning qanday foydali xususiyatlari bor?
2. Yana qanday foydali mahsulotlarni bilasiz?

- Siz qaysi mevani yaxshi ko‘rasiz? Uni ta’riflab aytib bering.

2-mashq. Shakllarga qarang.




- O‘ylab ko‘ring, bu shakllarni ta’riflash uchun sizga qaysi so‘zlar kerak bo‘ladi?
- Har bir shaklni ta’riflab, bittadan gap tuzing.

3-mashq. So‘zlarni o‘qing.

Yaxshi, yomon, katta, kichik, chiroyli, xunuk, sifatli, oq, qora, jahldor, uyatchang, mahmadona, issiq, sovuq, toza, loyqa.

- Berilgan so‘zlardan foydalanib, odamlar, hayvonlar va buyumlarning ta’rifi aks etgan gaplar tuzing.

4-mashq. O‘qing. Matndagi narsalarning belgisini bildirgan so‘zlarni daftarga yozing.

Tarvuz

Tarvuzni yaxshi ko‘rmaydigan bola topilmasa kerak. Ayniqsa, yoz faslini tarvuzsiz tasavvur qilish qiyin. U doim dasturxonimizdan joy oladi. Bu poliz ekini ham mazali, ham foydalidir. Tarvuzning tarkibi A va B vitaminlariga boy. Uni ko‘p yesangiz, kamqonlikka chalinmaysiz. Xotirangiz mustahkam bo‘ladi. Muhimi, semirib ketishdan asraydi.

Tarvuz urug‘i aprel va may oylarida yerga ekiladi. Ertapishar tarvuzlar 40 kunda yetiladi. Tarvuzning shakli yumaloq, po‘sti qalin va to‘q yashil tusda bo‘ladi. Eti qizil, urug‘i esa qora rangdadir.



1. Matnda tarvuzga qanday ta’rif berilgan?
2. Tarvuzni ta’riflash uchun qaysi so‘zlardan foydalanilgan?
3. Ayting-chi, ta’riflash uchun narsalarning belgisini bildirgan so‘zlar ishlatilganmi?

O‘z uyingizni ta’riflab, gaplar tuzing.

5-mashq. Rasmdagi bolalarni bir so‘z bilan ta’riflang. Bu so‘zlarni yozing.



6-mashq. O‘qing. Matndagi narsalarning belgisini bildirgan so‘zlarni daftarga yozing.

Dunyoda olmaning yetti mingga yaqin navi mavjud. Bizning yurtimizda esa yuzdan ziyod olma navlari o‘stiriladi. Olma juda ham mazali va foydali mevadir. Shifokorlar kuniga 700-800 gramm har xil sabzavot va mevalar iste’mol qilish kerak deyishadi. Olmalar g‘arq pishgan mavsumda esa ko‘proq olma yesangiz kifoya. Olma urug‘ida ko‘p miqdorda yod bor. Shuning uchun kuniga 2-3 dona olmani urug‘lari bilan iste’mol qilish foydali. Yozda pishadigan qizil olmalar shirin va shirali bo‘ladi. Shu bois ularni yangiligida iste’mol qilgan afzal. Kuzda pishadigan ko‘m-ko‘k va qattiq, nordon-shirin olmalarni qishga g‘amlab qo‘yish mumkin.

“O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasidan

1. Matnda olmaga qanday ta’rif berilgan?
2. Olmaning qanday shifobaxsh xususiyatlari bor?



7-mashq. Beriigan so‘zlardan foydalanib, Zumrad va Qimmatni ta’riflab bering.

shirinso‘z jahldor dangasa

odobli nodon ozoda uyquchi

aqlli mehnatkash qo‘pol



8-mashq. Nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

Everest sayyoramizning eng … cho‘qqisi hisoblanadi. Qirg‘iy dunyodagi eng … uchadigan qush. Shahnoza juda … , serharakat qiz. Katta va … vaznli qovoqlar unchalik shirin ta’mda bo‘lmaydi. Shirin va … o‘rik bolalarning eng sevimli mevalaridan biridir.

Foydalanish uchun so‘zlar:

xushbo‘y og‘ir baland tez chaqqon



Eng yaqin do‘stingizni ta’riflab, kichik matn tuzing.

9-mashq. She'rni ifodaii o'qing. Belgini bildirgan so'zlarni daftarga yozing.

Olxo'rijon, olxo'ri

Mevalarning mashhuri –
Olxo'rijon, olxo'ri.
Yesang ta'mi xushxo'ri –
Olxo'rijon, olxo'ri.
Murabbosi eng zo'ri –
Olxo'rijon, olxo'ri.
Aslida, jon huzuri –
Olxo'rijon, olxo'ri.



1. She'rda olxo'riga qanday ta'rif berilgan?
2. Olxo'rining qaysi xususiyati sizga ko'proq yoqadi?

10-mashq. Topishmoqlar javobini toping.

O'sar ko'kka bo'y cho'zib,
Qulochday bargin yozib.
Xipcha bel, zarrin soqol,
Tishlari zich, dur misol.





Yungi igna,
Burni tugma.
Ko'zi munchoq,
Bag'ri yumshoq.

11-mashq. Savollarga javob berib, yil fasllarini ta'riflang.

1. Bu faslda tabiatning ko'rinishi qanday bo'ladi?
2. Bu faslda hayvonlar qanday yashaydi?
3. Bu faslda odamlar qanday mevalarni yeydi?
4. Bu faslda qanday bayramlar bo'ladi?
5. Bu faslda bolalar qanday o'yinlar o'ynaydi?

12-mashq. Juft-juft bo'lib bajaring.

Partadoshingizga ta'rif bering. Uning tashqi ko'rinishi, yaxshi odatlari, bilimi haqida so'zlab bering. So'ng partadoshingiz ham sizga ta'rif beradi. Partadoshingizning yomon odatlari bo'lsa, bu haqida gapirmang. Faqat yaxshi xislatlari haqida gapiring. Biringiz ta'rif berayotganda ikkinchingiz jim o'tiring.



Sevimli multfilm qahramoningizga ta'rif berib, 6 ta gapdan iborat matn tuzing.

13-mashq. Rasmni ta'riflab, matn tuzing.

Rassom Karavajoning "Mevalar solingan savatcha" nomli kartinasi bundan 500 yil oldin chizilgan. Dunyoga mashhur bu suratda olma, uzum, anjir, nok va shaftoli kabi mevalarni ko'rish mumkin.



14-mashq. Ikki jamoaga bo'linib, "Kim topaloq" o'yinini o'ynaymiz.

Birinchi guruh kimligini aytmay, ikkinchi guruh bolalaridan birontasining ta'rifini keltiradi. Ikkinchi jamoa ta'rif kimga tegishliligini topadi.

Poliz ekinlarining foydali xususiyatlari haqida gaplar tuzing.

Olimpiada o‘yinlari

Dada: Bir oydan so‘ng yozgi olimpiada o‘yinlari boshlanadi. Maza qilib tomosha qilamiz.

Sherzod: Dada, olimpiada o‘yinlari nima?

Dada: Bu – o‘ziga xos sport musobaqasi. Olimpiada o‘yinlari har 4 yilda bir marta o‘tkaziladi. Unda dunyoning turli nuqtalaridan kelgan minglab sportchilar ishtirok etadi.

Sherzod: Voy, juda ham katta musobaqa ekan-da?!

Dada: Ha, dunyodagi eng katta sport musobaqasi.

Sherzod: Bu musobaqa haqida yanada ko‘proq bilgim kelyapti. Iltimos, aytib bering.

Dada: Yaxshisi, akang Temurdan iltimos qilamiz. Bizga olimpiada o‘yinlari haqida taqdimot qilib beradi.



O‘ylab ko‘ring.

1. Olimpiada o‘yinlari haqida nimalar bilasiz?
2. Qanday sport turlariga qiziqasiz?
3. Qaysi olimpiada chempionlarini bilasiz?

Sizningcha, qahramonimiz taqdimoti qanday bo‘ladi?



1-mashq. Taqdimot bilan tanishing.



Taqdimot biror narsa, voqea yoki ish-faoliyati haqida atroflicha ma'lumot berishdir. Taqdimot tushunarli, qiziqarli va foydali bo'lishi kerak. Shuning uchun taqdimot qilayotgan odam turli ko'rgazmali qurollar: rasmlar, chizmalar, buyumlar va videoroliklardan foydalanishi mumkin. Shunday qilinsa, tinglovchilar zerikib qolmaydi. Aytilayotgan narsalarni oson tushunadi.

1. Temurning olimpiada o'yinlari haqidagi taqdimoti qanday o'tdi?
2. Taqdimotning qanday bo'lishini bilib oldingizmi?
3. Temur yana nimalar haqida aytsa, taqdimoti qiziqroq chiqar edi?

Biror sport turi haqida taqdimot tayyorlashga harakat qiling.

2-mashq. Taqdimot bilan tanishing.

Tasavvur qiling. Siz avtomobil zavodining rahbarisiz. Sizning zavodingizda yangi rusumdagi avtomobil ishlab chiqarildi. Siz bu avtomobilni xaridorlarga ta’riflab berishingiz kerak. Ayting-chi, siz qanday taqdimot qilasiz?



1. Nomi nima?
2. Rangi qanday?
3. Tezligi qanday?
4. Boshqa avtomobillardan ustun tarafi bormi?

3-mashq. Taqdimot matnini yozing.



Bu sport buyumlaridan olimpiada o‘yinlarida foydalaniladi. Ulardan birini tanlab, taqdimot qilish uchun matn yozing. Yozgan matningizda quyidagi savollarga javob bo‘lishi kerak.

1. Sport buyumining nomi nima?
2. Qaysi sport turida foydalaniladi?
3. Shakli qanday?
4. Nimadan yasalgan?
5. Qanday foydalaniladi?

O‘zingiz sevgan sport turi haqida kichik matn tuzing.

4-mashq. **Rasm va ma’lumotlarga qarab taqdimot qiling.**



Hasanboy Do‘smatov

1993-yili Andijon viloyatida tug‘ilgan

Bokschi

49 kg vaznda jang qiladi

2 karra Osiyo chempioni

Olimpiada o‘yinlari oltin medali sovrindori

5-mashq. Rasmlarga qarang. Berilgan sport turlari haqida bittadan gap tuzing.



Basketbol



Erkin kurash



Velosport



Suzish



Yengil atletika

6-mashq. Topishmoqlar javobini toping.

Olimpiada chempioni bo'laman!

Boks eng qadimiy sport turlaridan biri hisoblanadi. Ming yillar oldin ham qadimgi Misr va Yunonistonda qo'l jangi bo'yicha musobaqalar o'tkazilgan.

Zamonaviy boksning vatani Angliya hisoblanadi. 1719-yilda angliyalik bokschi Jeyms Figg boks akademiyasini tashkil qilgan. Lekin o'sha davrda bu sport turi juda beshafqat bo'lgan ekan. Jangda hozirgiday maxsus charm qo'lqoplar bo'lmagan. Boksyorlar quruq musht bilan zarba berishardi. Ammo 1867-yilda boks sportining hozir biz bilgan qoidalari ishlab chiqiladi. Bunga ko'ra sportchi jang maydoniga qo'lqop bilan chiqishi qat'iy belgilab qo'yiladi. 1905-yilga kelib, boks sporti olimpiada o'yinlariga kiritiladi.

"Jajji akademik" jurnalidan

- Matndagi ma’lumotlardan foydalanib, boks sporti haqida taqdimot matnini yozing. Taqdimotda qanday ko‘rgazmali qurollardan foydalanish mumkinligi haqida o‘ylang. Nimalar haqida gapirsangiz, taqdimotingiz qiziqarli chiqishi mumkin? Bu savolga javob izlang.

1. Sportning qaysi turi bilan shug‘ullanasiz?
2. Siz ham olimpiada chempioni bo‘lishni istaysizmi?
3. Olimpiada oltin medalini olishdan maqsad nima?



7-mashq. Rasmlarga qarab, kichik hikoya tuzing.





8-mashq. Guruh-guruh bo‘lib bajaring.

- Sinf ikki jamoaga bo‘linib, taqdimot tayyorlash bo‘yicha musobaqa qiladi.
- Har ikki jamoa futbol sporti haqida taqdimot tayyorlashi kerak.
- Taqdimot katta oq qog‘ozga tayyorlanadi. Ishtirokchilar qog‘ozga turli rasmlar chizishi, suratlar yopishtirishi va ma’lumotlarni yozishi mumkin.
- Kimning taqdimoti chiroyli va sifatli chiqsa, shu jamoa g‘olib deb topiladi.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Mundarija:

MEN VA TEXNOOLAM

21-mavzu. Eng yaxshi ixtirolar 4
22-mavzu. Zamonaviy texnologiyalar 17

SAN'AT VA MEN

23-mavzu. Dunyo tillari 29
24-mavzu. Mening shirin suhbatlarim 38
25-mavzu. Maktabimiz devoriy gazetasi 48

SOG' TANDA SOG'LOM AQL

26-mavzu. O'qib uqmoq kerak 60
27-mavzu. Ham foydali, ham mazali 72
28-mavzu. Olimpiada o'yinlari 80

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Darslik holati haqida ma'lumot

№	O'quvchining F. I. Sh	O'quv yili	Darslik olingan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslik qaytarib berilgan vaqtdagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslikni olish va o'quv yili oxirida uni qaytarishda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi mezonlarga muvofiq to'ldiriladi

Yangi	Darslikning holati a'lo darajada
Yaxshi	Muqovasi butun, kitobning asosiy qismidan uzilmagan. Barcha sahifalar mavjud, butun, yirtilmagan, yelimi ko'chmagan
Qoniqarli	Muqovasi ezilgan, shikastlangan, kitobning asosiy qismidan qisman ajralgan va foydalanuvchi tomonidan tiklangan. Qayta tiklash ishlari qoniqarli. Yirtilgan sahifalar yopishtirilgan, ba'zi sahifalari yirtilgan
Qoniqarsiz	Muqovasiga chizilgan, kitobning asosiy qismidan to'liq yoki qisman yirtilib, uzilgan, qoniqarli tiklangan. Sahifalari yirtilgan, ba'zi sahifalari yo'q, bo'yalgan, ifloslangan, tiklash mumkin emas

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Kuranov Saydullo Dilmuratovich

Ona tili

2-sinf

IV qism

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik

"Novda Edutainment"
Toshkent – 2023

Muharrir	*M. Nishonboyeva*
Badiiy muharrir	*A. Sobitov*
Musahhih	*X. Serobov*
Rassomlar:	*Y. Salyaxova, L. Zatulovskaya, X. Vaxidova*
Kompyuterda sahifalovchi	*T. Akhmadjonov*

Nashriyot litsenziyasi AI №158. 10.09.2023-yilda original-maketdan
bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70×100/16. Kegli 16 n/shponli.
"Arial" garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi.
Mashinada yengil bo'rlangan (Machine Finished Coated) 80 g/m2 qog'oz.
Shartli b.t. 5,5. Hisob-nashriyot t. 1,8.
Adadi 626 913 nusxa. Buyurtma raqami 23-577.
"O'zbekiston" NMIUda chop etildi.